



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGINING BUYRUG‘I

2025 y. 26 iyun

N^o 01-10/132

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ–77-son qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 27-fevraldagi PQ–77-son qarori hamda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da energiya resurslarini tejash va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshiriladigan asosiy vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 27-fevraldagi PQ–77-son qarori 3-bandi “b” kichik bandiga muvofiq, budjet tashkilotlari hamda davlat ishtirokidagi korxonalar xodimlarining o‘z ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan va o‘rnatiladigan quyosh panellari, quyosh kollektorlari hamda energiya samarador qurilmalar bilan bog‘liq xarajatlari tegishli tashkilotning budjetdan tashqari mablag‘lari va korxonaning mablag‘lari hisobidan xodimning oylik ish haqidan foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti asosida moliyalashtirilishi belgilanganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xodim taqdim etgan o‘z ehtiyojlari uchun quyosh panellari, quyosh kollektorlari va energiya samarador qurilmalarni xarid qilish va o‘rnatish bo‘yicha tuzilgan shartnoma va Agentlik direktori nomiga yozilgan ushbu xarajatlar uchun foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan mablag‘ ajratish haqidagi ariza tashkilotning Kasaba uyushmasi qo‘mitasi tomonidan ma‘qullangandan so‘ng Agentlik buyrug‘i va xodim bilan tuziladigan shartnomaga asosan xodimga Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratilishi belgilansin.

Bunda, ushbu mablag‘lar shartnomaga asosan 3 yilgacha muddatda xodimning oylik ish haqidan teng ulushlarda ushlab qolish orqali qaytariladi.

3. Agentlik markaziy apparati Kasaba uyushmasi qo'mitasi (A.Alimov)ga tashkilotning jamoa shartnomasiga ushbu buyruqda nazarda tutilgan xarajatlarning amalga oshirilishini belgilovchi o'zgartirish kiritish va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlash tavsiya etilsin.

4. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Direktorning
birinchi o'rinbosari**



D.Kattaxanova